“XITOY+1” STRATEGIYASI: XALQARO KORPORATSIYALARNING ISHLAB CHIQARISHNI KO’CHIRISH VA XITOY SANOATIGA OQIBATLARI

Ahmedova Shahnoza Baxtiyor qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: **Mo’minov Ilhom Akbar o’g’li**
Email: akhmedovashakhnoza44@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.22049701
Telefon: +998 94 696 03 11

Annotatsiya. Tadqiqot XXI asr ikkinchi o'n yilligida shakllangan "Xitoy+1" strategiyasining kelib chiqishi va global ta'sirini o'rganadi. AQSh-Xitoy savdo tortishuvi, pandemiya va mehnat qiymatining oshishi xalqaro korporatsiyalarni ishlab chiqarish zanjirlarini diversifikatsiya qilishga majbur etdi. Taqqoslash va statistik tahlil metodlari asosida Vetnam, Hindiston, Malayziya, Meksika tajribasi ko'rsatilgan. Natijalar shuni isbotladiki, strategiya Xitoyni yuqori texnologiyali ishlab chiqarishga yo'naltirmoqda, ammo uning yetakchi pozitsiyasi saqlanmoqda. Ilmiy hissa diversifikatsiyaning mintaqaviy integratsiyaga ta'sirini ochib berishdan iborat. Amaliy jihatdan O'zbekiston va Markaziy Osiyo uchun mintaqaviy qiymat zanjirlariga qo'shilish mexanizmlari taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: Xitoy+1 strategiyasi, ishlab chiqarishni ko'chirish, etkazib berish zanjirlarini diversifikatsiyalash, Vetnam, Hindiston, geosiyosiy tavakkalchiliklar, Xitoy sanoati, Markaziy Osiyo.

THE "CHINA+1" STRATEGY: RELOCATION OF PRODUCTION BY MULTINATIONAL CORPORATIONS AND IMPLICATIONS FOR CHINESE INDUSTRY

Abstract. This study examines the "China+1" strategy that emerged in the second decade of the 21st century. US-China trade tensions, pandemic disruptions, and rising labor costs compelled multinational corporations to diversify production chains. Using comparative and statistical analysis, the research evaluates experiences of Vietnam, India, Malaysia, and Mexico. Results demonstrate that the strategy channels China toward high-technology manufacturing while maintaining its leadership position. The scholarly contribution reveals how diversification impacts regional economic integration. Practical significance lies in proposing mechanisms for Uzbekistan and Central Asia to integrate into regional value chains and leverage emerging industrial cooperation opportunities.
Keywords. China Plus One (China+1) strategy, production relocation, diversification of supply chains, Vietnam, India, geopolitical risks, China’s industrial sector, Central Asia.

СТРАТЕГИЯ "КИТАЙ+1": ПЕРЕМЕЩЕНИЕ ПРОИЗВОДСТВА ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫМИ КОРПОРАЦИЯМИ И ПОСЛЕДСТВИЯ ДЛЯ ПРОМЫШЛЕННОСТИ КИТАЯ

Аннотация. Исследование анализирует стратегию "Китай+1", сформировавшуюся во втором десятилетии XXI века. Торговые противоречия США и Китая, пандемия и рост стоимости труда вынудили транснациональные корпорации диверсифицировать производственные цепочки. На основе сравнительного и статистического анализа изучен

опыт Вьетнама, Индии, Малайзии и Мексики. Результаты показывают, что стратегия направляет Китай к высокотехнологичному производству при сохранении лидерства. Научная значимость состоит в раскрытии влияния диверсификации на региональную интеграцию. Практическая ценность заключается в разработке механизмов интеграции Узбекистана и Центральной Азии в региональные цепочки добавленной стоимости.

Ключевые слова. стратегия «Китай плюс один» (China+1), релокация производства, диверсификация цепочек поставок, Вьетнам, Индия, геополитические риски, промышленный сектор Китая, Центральная Азия.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bugungi kunning eng muhim vazifasidir". Bu borada jahon iqtisodiyotidagi transformatsiya jarayonlarini chuqur anglash, xususan, global ishlab chiqarish zanjirlarining qayta qurilishi muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. So'nggi o'n yillikda jahon iqtisodiyoti ishlab chiqarish zanjirlarini qayta qurish jarayoniga guvoh bo'lmoqda. Bu o'zgarishlarning markazida "Xitoy+1" deb nomlangan strategiya turibdi. Ushbu yondashuv xalqaro korporatsiyalarning faqat Xitoyga bog'liq bo'lmasdan, kamida yana bitta mamlakatda ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirishni nazarda tutadi.

Tadqiqotning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, 2018 yildan boshlangan AQSh-Xitoy savdo tortishuvlari jahon savdosiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Tariflar yuzlab milliard dollarlik tovar aylanmasiga tegishli bo'ldi. Ikkinchidan, 2020-2021 yillarda COVID-19 pandemiyasi etkazib berish zanjirlarining zaif tomonlarini ochib berdi. Xitoydagi qat'iy "nol COVID" siyosati ko'plab fabrikalarning to'xtashiga sabab bo'ldi. Uchinchidan, Xitoyda ishchi kuchi narxi tobora ortib bormoqda - 2010 yildan 2024 yilgacha ish haqi soatiga 2 dollardan 7,10 dollargacha ko'tarildi. Ushbu maqolaning maqsadi "Xitoy+1" strategiyasining paydo bo'lish sabablarini, uning amalga oshirilishi mexanizmlarini va Xitoy sanoatiga ta'sirini kompleks tarzda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari: strategiya paydo bo'lishining asosiy drayverlarini aniqlash; muqobil mamlakatlarning raqobatbardosh afzalliklarini baholash; Xitoy sanoatiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy oqibatlarni o'rganish; O‘zbekiston va Markaziy Osiyo uchun imkoniyatlarni belgilash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, maqolada birinchi marta "Xitoy+1" strategiyasining Markaziy Osiyo mintaqasiga ta'siri o'zbek tilida kompleks tarzda o'rganiladi va mintaqaviy integratsiya nuqtai nazaridan tahlil etiladi. "Xitoy+1" strategiyasi bo'yicha ilmiy adabiyotlar so'nggi besh yilda jadal rivojlandi. Bu mavzu xalqaro iqtisodiyot, savdo siyosati, etkazib berish zanjirlari menejmenti sohalarida keng muhokama qilinmoqda.

Strategiyaning konseptual asoslari. Dekupling (uzayish) va diversifikatsiya nazariyalari ushbu strategiyaning nazariy asosini tashkil etadi. Zhang va Hamilton (2023) dekuplingni davlatlar yoki kompaniyalarning Xitoy bilan iqtisodiy o'zaro bog'liqlikni kamaytirish jarayoni sifatida ta'riflaydilar. Biroq, "Xitoy+1" to'liq dekupling emas, balki tavakkalchiliklarni minimallashtirish strategiyasi ekanligini ta'kidlashadi. CME Group (2023) tomonidan ishlab chiqilgan "Ishlab chiqarish jozibadorligi" modeli 23 ta iqtisodiy ko'rsatkichni o'z ichiga oladi. Model ishchi kuchi narxi, ishlab chiqarish raqobatbardoshligi, infratuzilma sifatini, siyosiy barqarorlik va savdo shartnomalarini baholaydi. Tadqiqotchilar Malayziya, Tailand va Vetnam kabi "Yo'lbars bolasi" iqtisodiyotlari eng yaxshi pozitsiyaga ega ekanligini aniqladilar.

Strategiya paydo bo'lishining sabablari. Akademik manbalar bir necha asosiy omillarni ta'kidlaydilar:

Geosiyosiy omillar. AQSh Savdo palatasining (2023) ma'lumotlariga ko'ra, 40% amerikalik kompaniyalar Xitoydan ishlab chiqarishni ko'chirish yoki bu haqda o'ylab ko'rmoqda. 2018-2025 yillarda kiritilgan tariflar 550 milliard dollarga yetdi. Yevropa Ittifoqi anti-demping siyosatlari po'lat, alyuminiy va quyosh panellari sektorlarida Xitoy eksportini cheklaydi.

Pandemiya ta'siri. Chen (2024) COVID-19 pandemiyasi yetkazib berish zanjirlari zaif tomonlarini ochib berganligi haqida yozadi. Xitoyning "nol COVID" siyosati uzoq muddatli lokdaunlarga olib keldi, bu esa ko'plab xalqaro kompaniyalarning ishlab chiqarishini to'xtatdi.

Iqtisodiy omillar. Xitoyda ishchi kuchi narxi 2010-2024 yillarda 255% ga o'sdi. 2024 yilga kelib, Xitoyda ishchi kuchi Vetnam, Hindiston va Meksikaga nisbatan 50-65% qimmat. Yana bir muhim omil - ishchi yoshi ozuvchi tartibda kamayib bormoqda. Prognozlarga ko'ra, 20-65 yosh oralig'idagi aholi 2050 yilgacha 200 millionga kamayadi.

Adabiyotlar sharhi shuni ko’rsatadiki, tadqiqotchilar bir necha asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatadilar: Nike, Intel, Adidas kabi kompaniyalar Vetnamda yirik korxonalar ochganlar. 2018-2019 yillarda AQShga Vetnam eksporti 35% ga o'sdi. Mamlakat geografik jihatdan Xitoyga yaqin, RCEP va CPTPP savdo shartnomalari a'zosi. Asosiy sohalar: to'qimachilik, poyabzal, elektronika, iste'mol tovarlari, mebel. Jahon banki rahbari Hindistonni "Xitoy+1" imkoniyatidan foydalanishga chaqirdi. Mamlakat Xitoyga o'xshash katta ishchi kuchi va bozorga ega. Hukumat yarim o'tkazgichlar ishlab chiqarish uchun $10 milliard ajratdi. Apple va Samsung Hindistonda yirik ishlab chiqarish quvvatlarini qurmoqda. USMCA shartnomasi tufayli AQSh bozoriga yaqinligi asosiy afzallik. Avtomobil, tibbiy asboblar, aerokosmos sohalari rivojlanmoqda. Vaqt mintaqalari mosligi va transport xarajatlarining arzonligi muhim omillar. ABI Research (2024) ma'lumotlariga ko'ra, "Xitoy+1" strategiyasi Xitoyni yuqori qo'shilgan qiymat ishlab chiqarishga o'tishga undamoqda. Xitoy yalpi ichki mahsulotining 26% ini ishlab chiqarish tashkil etadi. Mamlakat Sanoat 4.0 texnologiyalarini faol joriy etmoqda: robotlashtirish, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar. Muhimi shuki, "Xitoy+1" Xitoydagi ishlab chiqarish va ish o'rinlari sonini kamaytirmadi, faqat o'sish sur'atini pasaytirdi. Bu qo'shni mamlakatlarga rivojlanish imkonini beradi. Ko'plab Xitoy kompaniyalari ham Janubiy-Sharqiy Osiyoda korxonalar ochmoqda - bu etkazib berish zanjirlarini optimallashtirish strategiyasi. "Markaziy Osiyo - Xitoy" sammitlari (2023, 2025) mintaqa mamlakatlari uchun yangi imkoniyatlarni ochdi. 2024 yilda tovar aylanmasi 94,8 milliard dollarga yetdi. Xitoydan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 24 milliard dollardan oshdi. O‘zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, Xitoy sanoat mahsulotlari va texnologiyalarining ulushi O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Adabiyotlar tahlili ko'rsatadiki, "Xitoy+1" strategiyasi murakkab jarayon bo'lib, u faqat iqtisodiy emas, balki geosiyosiy, texnologik va demografik omillarni o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot aralash metodologik yondashuvga asoslangan bo'lib, sifat va miqdor usullarini birlashtiradi.

Tadqiqot dizayni. Tavsifiy-tahliiliy tadqiqot dizayni qo'llanildi. Bu yondashuv "Xitoy+1" strategiyasining paydo bo'lishi, rivojlanishi va oqibatlarini tizimli tarzda o'rganishga imkon beradi. Tadqiqot ikki bosqichida amalga oshirildi: birinchi bosqichda nazariy asoslar va tarixiy kontekst o'rganildi; ikkinchi bosqichda amaliy tatbiqlar va oqibatlar tahlil qilindi.

Tahlil usullari.

Trendlar tahlil. Savdo oqimlari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, ishlab chiqarish ko'chirilishi dinamikasi 2010-2024 yillarda kuzatildi. Bu davlatlar va sohalar bo'yicha solishtirma tahliiga imkon berdi.

Kontent-tahlil. Ilmiy adabiyotlar, hukumat hujjatlari va korporativ strategiyalarni tizimli o'rganish orqali asosiy tendensiyalar va kontsepsiyalar aniqlandi.

Qiyosiy tahlil. Vetnam, Hindiston, Meksika, Malayziya kabi mamlakatlarning raqobatbardosh afzalliklari ko'p mezondan baholash orqali solishtirildi.

SWOT-tahlil. Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston uchun "Xitoy+1" strategiyasidan foydalanishning imkoniyatlari va cheklovlari aniqlandi.

Tadqiqot falsafasi. Tadqiqot pragmatik paradigmaga asoslangan. Bu yondashuv iqtisodiy jarayonlarni real kontekstda, turli omillarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda o'rganishni nazarda tutadi. Induktiv va deduktiv fikrlash usullari birgalikda qo'llanildi. Tadqiqotning ishonchliligi bir necha manbalardan ma'lumotlarni tekshirish (triangulyatsiya) orqali ta'minlandi. Turli mamlakatlar va tashkilotlarning ma'lumotlari solishtirildi. Validlik esa nazariy konsepsiyalar va empirik dalillarning mosligini tekshirish orqali ta'minlandi. Barcha manbalar to'g'ri havola qilindi, ma'lumotlarning mantiqiy qalbakilashtirilmaganligi ta'minlandi. Turli nuqtai nazarlar obyektiv tarzda aks ettirildi.

AQSh-Xitoy savdo tortishuvlari 2018 yildan boshlanib, jahon savdosiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. AQSh Savdo palatasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017-2020 yillarda amerikalik biznesmenlarning Xitoy iqtisodiyotiga optimizmi 22 foiz punktga kamaydi. Xitoydagi investitsiyalarni kamaytirishni rejalashtirayotgan kompaniyalar ulushi shu davr mobaynida 22 foizga oshdi. Tariflar 550 milliard dollarlik qimmatdagi tovarlarga qo'llanildi. Bu kompaniyalarni tarifsiz zonaga ko'chishga majbur etdi. Masalan, Chervon power tools kompaniyasi AQSh tariflaridan qutulish uchun Vetnamda zavod ochdi, garchi keyinchalik xarajatlar Xitoydagidan 7% yuqori bo'lib chiqdi. COVID-19 pandemiyasi etkazib berish zanjirlarining zaif tomonlarini ochib berdi. Xitoyning "nol COVID" siyosati uzoq muddatli lokdaunlarga olib keldi. 2020 yil boshida Xitoy ishlab chiqarishi to'liq to'xtadi, bu jahon bo'ylab etkazib berish zanjirlarini buzdi. Pandemiya kompaniyalarga diversifikatsiya muhimligini anglatdi. Bir mamlakatga qaram bo'lish juda xavfli ekanligi ma'lum bo'ldi. Natijada, ko'plab kompaniyalar diversifikatsiya strategiyasini tezlashtirdi. Vetnamda ishchi kuchi narxi Xitoydan 50% arzonroq. Hindistonda esa 65% arzonroq. Meksikada Xitoyga nisbatan 30-50% arzon. Bu iqtisodiy faktor, ayniqsa mehnat talab qiladigan sohalar uchun muhim. Xitoyning "bir bola" siyosati mehnat bozorini buzdi. 20-65 yosh oralig'idagi aholi 2050 yilgacha 200 millionga kamayadi (14% ga). Bu ishchi kuchi tanqisligini keltirib chiqaradi. Yosh ishchilar yetishmasligi allaqachon muammo bo'lib qoldi - ko'plab fabrikalarda ariza beruvchilarning ko'pchiligi 40-50 yoshda. Ma'lumotlar xavfsizligi qonunlari (DSL va PIPL) chet el kompaniyalari uchun yangi yuklarni yaratdi. Intellektual mulk o'g'irlash xavotiri saqlanib qolmoqda - yiliga 600 milliard dollarlik zarar baholanadi. Xitoyning texnologik yutuqlari potentsial xavf sifatida qabul qilinmoqda. Ko'plab davlatlar Huawei va ZTE kabi kompaniyalarni 5G sinovlaridan chetlatdilar. Xitoy yuqori qo'shilgan qiymat ishlab chiqarishga o'tmoqda. Sanoat 4.0 texnologiyalari faol joriy etilmoqda: robotlashtirish, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar. 2023 yilda Xitoy dunyodagi sanoat robotlarining 50% dan ko'pini o'rnatdi. Elektr avtomobillari sohasida yetakchilik BYD 2023 yilda Tesla'dan oshib ketdi. Batareya texnologiyalari bo'yicha global yetakchi. Quyosh panellari ishlab chiqarishda 80% ulushga ega. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlari esa "Xitoy+1" Xitoydagi ishlab chiqarishni kamaytirmadi, faqat o'sish sur'atini pasaytirdi. Xitoy ishlab chiqarish YaIMi 2020 yilda 3,86 trillion dollar edi. 2024 yilda 5,46 trillion dollarga yetdi. Bu 42% o'sish. Xitoy jahon ishlab chiqarishining 31% ini amalga oshiradi. AQSh 16,3%, Yaponiya 6,5%, Germaniya 4,8%. Ishlab chiqarish ishchi kuchi kamaymadi. Sanoat robotlari mehnat yetishmasligini qoplagan. Ko'plab Xitoy korporatsiyalari o'zlari Janubiy-Sharqiy Osiyoda korxonalar ochmoqdalar. Bu yetkazib berish zanjirlarini optimallashtirish strategiyasi. Xitoy to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalari 2023 yilda 146,2 milliard dollarga yetdi. Vetnamga Xitoy investitsiyalari

2023 yilda 4,36 milliard dollarni tashkil etdi. Tailandda to'qimachilik va elektronika zavodlari ochilmoqda. Indoneziyada nikel qayta ishlash sanoati rivojlanmoqda. Kam texnologiyali ishlab chiqarishning ko'chirilishi Xitoyga ekologik istiqbollarni yaxshilash imkoniyatini beradi. "Karbon neytral 2060" maqsadi e'lon qilingan. Toza energiya ulushi ortmoqda. Ko'mir iste'moli nisbiy ulush kamayib bormoqda.

Cheklovlar va xavflar. "Xitoy+1" Xitoy uchun baribir muammolar yaratadi. Savdo daromadlari ba'zi sohalarda kamayadi. Ishchi kuchi tanqisligi kuchayadi. Texnologik raqobat oshmoqda. Geosiyosiy izolyatsiya xavfi saqlanib qolmoqda. AQSh va Yevropa ittifoqi ba'zi texnologiyalar eksportini cheklashda. Yarim o'tkazgichlar uchun chegaralar joriy etildi. Biroq, Xitoyning ulkan ichki bozori va ulush iqtisodiy mustaqillikni ta'minlaydi.

"Markaziy Osiyo - Xitoy" sammitlari (2023 Shi'an, 2025 yul) mintaqa uchun yangi davrning boshlanishini belgilaydi. 2024 yilda tovar aylanmasi 94,8 milliard dollarga yetdi. Xitoydan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar 24 milliard dollardan oshdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yilgi Xitoyga tashrifi davomida 106 ta hujjat imzolandi. Iqtisodiy sug'urta jumlasi 12 milliard dollardan oshdi. Angren-Pop temir yo'l loyihasi Markaziy Osiyoni Xitoy bilan uzviy bog'laydi. O'zbekistonning raqobatbardosh afzalliklari. O'zbekiston 35 million aholi bilan mintaqaning eng katta bozori. Yosh demografiya - 50% aholi 25 yoshdan kichik. Ishchi kuchi narxi raqobatbardosh: o'rtacha ish haqi 300-500 dollar. Tabiiy resurslar boyligi: oltin, mis, lityum. Paxta va qishloq xo'jaligi mahsulotlari. Quyosh va shamol energiyasi potensiali katta. Geografik jihatdan Yevropa va Osiyo o'rtasi. 2017 yildan boshlab O'zbekiston keng qamrovli islohotlar amalga oshirmoqda. Valyuta bozori liberallashtirildi. Bojxona jarayonlari soddalashtirildi. Soliq tizimi isloh qilindi. Erkin iqtisodiy zonalar: Navoiy, Jizzax, Sirdaryo. Xo'jand va Sherobod zonalari. Bu zonalarda soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etiladi. Asosiy maqsad: elektronika, to'qimachilik, avtomobil qismlari ishlab chiqarish jalb qilish. Sanoat hamkorlik istiqbollari. To'qimachilik: xom paxtani tayyor kiyimlarga aylantirish. Vetnam tajribasini o'rganish. Xitoy va Turkiya investitsiyalarini jalb qilish. Avtomobil sanoati: GM Uzbekistan tajribasi. Qismlar ishlab chiqarish rivojlantirish. Elektr avtomobillari uchun batareya qismlari. Elektronika: telefon va planshetlar yig'ish. Xitoydan texnologiyalarni transfer qilish. Arzon ishchi kuchi va markaziy joylashuv afzalliklari. Qishloq xo'jaligini qayta ishlash: meva-sabzavot konservalash. Paxta to'qimachiligi. Organik mahsulotlar eksporti. Cheklovlar va chaqiriqlar. Infratuzilma zaif: yo'llar, logistika, energiya ta'minoti. Yuqori malakali kadrlar yetishmasligi. Til to'siqlari - ingliz tili bilish past. Qonunchilik barqarorligi va davlat boshqaruv samaradorligi. Investitsion muhit: garchi yaxshilanayotgan bo'lsa ham, hali Vetnam yoki Malayziya darajasida emas. Qo'shni mamlakatlar bilan koordinatsiya zarur. Markaziy Osiyo birlashgan mintaqa sifatida harakat qilishi kerak.

SWOT-tahlil.

Kuchli tomonlar: Katta va yosh aholi; arzon ishchi kuchi; tabiiy resurslar; geografik jihatdan qulay joylashuv; davlat tomonidan faol qo'llab-quvvatlash.

Zaif tomonlar: Infratuzilma cheklovlari; malakali kadrlar yetishmasligi; til to'siqlari; texnologik ortda qolish; mahalliy etkazib beruvchilar tarmog'i zaif.

Imkoniyatlar: "Xitoy+1" trendi; Xitoy bilan yaxshi munosabatlar; mintaqaviy integratsiya; erkin savdo zonalari; Yevropa va Osiyo uchun ko'prik.

Tahdidlar: Qo'shni mamlakatlar bilan raqobat; geosiyosiy o'zgaruvchanlik; global iqtisodiy inqiroz xavfi; iqlim o'zgarishi va suv yetishmasligi.

Xulosalar va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, "Xitoy+1" strategiyasi iqtisodiy omillar bilan bir qatorda geosiyosiy va institutsional tavakkalchiliklar ta'sirida

shakllanmoqda. Ushbu yondashuv Xitoydan to‘liq chiqishni emas, balki ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlarini diversifikatsiya qilishni nazarda tutadi. Vetnam, Hindiston va Meksika mazkur jarayondan eng katta foyda ko‘rayotgan davlatlar bo‘lsa-da, Xitoy iqtisodiyoti ham yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishga moslashmoqda.

Mazkur tendensiya Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston uchun yangi sanoat va investitsiya imkoniyatlarini ochadi. Biroq ushbu imkoniyatlardan foydalanish infratuzilma, kadrlar tayyorlash va institutsional muhitni takomillashtirish bilan bevosita bog‘liq. Shunday qilib, “Xitoy+1” strategiyasi O‘zbekistonning global ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyalashuvi uchun muhim, ammo uzoq muddatli va tizimli yondashuvni talab etuvchi jarayon hisoblanadi.Yakuniy xulosa. "Xitoy+1" strategiyasi global iqtisodiyotni qayta shakllantirmoqda. Bu jarayon Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston uchun tarixiy imkoniyatdir. Biroq, bu imkoniyatdan foydalanish uchun maqsadli siyosat, tizimli islohotlar va mintaqaviy hamkorlik zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlaganidek, "biz iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishda barcha imkoniyatlardan foydalanishimiz kerak". "Xitoy+1" trendi ana shu imkoniyatlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ABI Research (2024). Xitoy+1 ishlab chiqarish strategiyasi hisoboti. Sanoat tadqiqot nashrlari.
2. Chen, M. (2024). COVID-19 dan keyingi global etkazib berish zanjirlarini qayta qurish: Sharqiy Osiyodan dalillar. Xalqaro iqtisodiyot jurnali, 45(3), 234-256.
3. Pham, T.H. (2024). Vetnamning global ishlab chiqarishni ko'chirishdagi roli. Osiyo iqtisodiyot jurnali, 52(1), 45-67.
4. UN Comtrade (2024). Xalqaro savdo statistikasi ma'lumotlar bazasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti.
5. AQSh Savdo palatasi (2023). Amerikalik biznesning Xitoyga nisbatan kayfiyati. Yillik biznes so'rovi.
6. Jahon banki (2024). Jahon rivojlanish ko'rsatkichlari. Vashington, DC.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi materiallari (2023).